

“MEHNAT” KONSEPTINI IFODALOVCHI FE’LLAR TAHLILI

Yo‘ldosheva Nafisa Qudrat qizi

BuxDU magistranti

Tel:99-703-73-62

E-mail: yuldashevafisa97@gmail.com

Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Xalq tafakkurining xilma-xilligi, serqirraligi, qarama-qarshiligi maqollarda namoyon bo‘ladi. Maqollar ham ijobiy tuyg‘ularni tarbiyalaydi, bizni yuksak axloqiy xulq-atvor namunasi sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maqollarning ko‘pchilagini mehnat mavzusi qamrab oladi. Biz tadqiqotimiz davomida mehnat mavzusidagi maqollarda ishlatilgan fe’llarni tahlilga tortishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: parema, sodda fe’l, qo‘shma fe’l, takror fe’l.

ANNOTATION

The diversity, diversity and contradictions of the people’s thinking are reflected in the articles. Proverbs also cultivate positive emotions, showing us as an example of high moral behavior. Research shows that most articles cover the topic of labor. In our study, we tried to analyze the verbs used in labor-related articles.

Keywords: parema, simple verb, compound verb, repetitive verb.

Maqollar ijobiy tuyg‘ularni tarbiyalashga xizmat qiladi, bizni yuksak axloqiy xulq-atvor namunasi sifatida ko‘rsatadi. Ayni paytda shuni ta’kidlash joizki, maqol muhim fikr bo‘lsa, xalq orasida yashayotgan minglab maqollar hayotning serqirra va teran mazmunli manzarasini ifodalaydi. Yaxshi va yomonni farqlashni o‘rgatadi. Maqollarda xalq donoligi, hayotning axloqiy qoidalari aks ettirilgan bo‘ladi. Ular hayotning keng qatlamlarini ifodalab, xalq tajribasini o‘z ichiga oladi. Maqollarning

mavzuyi xilma-xildir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollarning ko'pchiligini mehnat mavzusi qamrab oladi. Biz tadqiqotimiz davomida mehnat mavzusidagi maqollarda ishlatilgan leksik birliklarni tahlilga tortishga harakat qildik.

O'zbek xalq paremalarida "mehnat" konseptini ifodalaydigan fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Tub fe'llar:

-bermoq: Birni birov beradi, Ko'pni — mehnat; Birovning bergani — ko'rgulik, Mehnatning bergani — to'ygulik [2,15].

-oshirmoq: Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar.

-ochmoq: Yigitning baxtini mehnat ochar.

-sinalmoq: Mardning mardi maydonda sinalar, Yigitning yigit — mehnatda.

-boqmoq: Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar.

-to'ldirmoq: Mehnat tovoq to'ldirar, Minnat toq kuydirar.

-keltirmoq: Mehnat shuhrat keltirar, Yalqovlik — la'nat.

-oshmoq: Mehnat qilgan moy oshar.

-topmoq: Mehnatning ko'zini topgan Boylikning o'zini topar.

-singmoq: Ota boyligi yerga singar, Mehnat boyligi — elga.

-toblanmoq: Oltin o'tda toblanar, odam — mehnatda.

-oshamoq: Oz yesang, ko'p yashaysan, Mehnat qilsang, ko'p oshaysan.

-shoshmoq: Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.

-bilmoq: Gap bilguncha, ish bil.

-ko'zla: Gapni oz so'zla, Ishni ko'p ko'zla.

-o'tmoq: Ish bilan vaqt tez o'tar.

-bitmoq: Ish bilan qishning mushkuli bitar.

-qo'rmoq: Ish ustasidan qo'rkar.

-tanlamoq: Ish qila olmagan ish tanlar.

-sug'ormoq: Ishi yo'q it sug'orar.

-boqmoq: Ishi yo'q ish topar, Ishton solib, bit boqar.

-tutmoq: Ishi yo'q chivin tutar.

- hurkitmoq:** Ishi yo‘q eshak hurkitar.
- qaqshatmoq:** Ishlagan yerni yashnatar, Ishlamagan — qaqshatar.
- kulmoq:** Ishlanmagan ishga shayton kular.
- buzmoq:** Ishni yo bachcha buzar, yo nasha buzar.
- topshirmoq:** Ishni istaganga emas, bilganga topshir.
- qilmoq:** Ishning zo‘rini mard qilar.
- sevmoq:** Ishsevarni el sevar.
- uqalamoq:** Ihsiz iyagini uqlar.
- zerikmoq:** Ihsiz hayvon ham zerikar.
- chiqmoq:** Odam ishdan chiqmaydi, Odamdan ish chiqadi.
- qizdirmoq:** Odamni po‘stin emas, ish qizdirar.
- qayg‘urmoq:** Pul yo‘q deb qayg‘urma, Ish yo‘q deb qayg‘ur.
- quvmoq:** Sen ishni quvsang, Non seni quvar.
- boqmoq:** So‘ziga boqma, ishiga boq.
- yemoq:** Terlab ishlasang, to‘yib yeysan.
- qaramoq:** Tusiga qarama, ishiga qara.

2.Yasama: a) sodda yasama fe’llar:

- ko‘karmoq:** Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, Mehnat bilan — el.
- ishlamoq:** To‘kilgan — tering, ishlagan — yering.
- yasharmoq:** Mehnat qilsang, yasharsan, Katta-katta osharsan.
- tishlamoq:** Ishlagan osh tishlar, Ishlamagan tosh tishlar.
- terlamoq:** Ishlikning peshonasi terlar, Ishsizning — bo‘yni.

b) qo‘shma fe’llar: **-osh bo‘lmoq:** Mehnatlgi osh osh bo‘lar, Mehnatsiz osh — tosh.


-davron surmoq: Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan, Mehnat qilsang, davron surasan.

- zo‘r bo‘lmoq:** Suvdan kechgan ho‘l bo‘lar, Mehnat chekkan zo‘r bo‘lar.
- shuhrat keltirmoq:** Mehnat shuhrat keltirar, Yalqovlik — la’nat.
- oz bo‘lmoq:** Ish quroling soz bo‘lsa, Mashaqqating oz bo‘lar.

-xor bo‘lmoq: Ishlagan xor bo‘lmas.

3. Takror fe’llar:

-yig‘lab-yig‘lab: Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, Kulib-kulib sug‘orasan [3,157].



Xulosa qilib aytganda, “Mehnat” konseptini ifodalaydigan fe’llar semantik maydonining yadrosidan tub fe’llar, yadrooldi markazidan yasama fe’llar, chekka nuqtadan esa takror fe’llar o‘rin oladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 144 b.
2. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq” NMAK, 2013.
3. SHomaqsudov SH., SHorahmedov SH. Hikmatnoma. – Toshkent: Sovet O‘zbek Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 175 b.